O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

IsDB البنك الإسلامي للتنمية Islamic Development Bank

UNDP

ISLOM TARAQQIYOT BANKI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING O‘ZBEKISTONDAGI TARAQQIYOT DASTURI

FUNKSIONAL VAZIFALAR TAHLILI BO‘YICHA HISOBOT

QISHLOQ JOYLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH LOYIHASI

Noyabr, 2025-yil

Loyiha menejeri: Baxtiyor Sayfitdinov

Xalqaro konsultant: Dace Gruberte
Milliy konsultantlar: Dildora Amirkulova
Gulnora Xodjaniyazova
Firdavs Akramov

Kontaktlar:
O‘zbekistondagi BMTTD Ofisi
100029, O‘zbekiston, Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 4-uy
policybrief@undp.org
www.uz.undp.org
Tel: (998 78) 120 34 50
(998 78) 120 61 67
Fax: (998 78) 120 34 85

Hisobot O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda BMTTDning qo‘shma loyihasi doirasida ishlab chiqildi (B komponenti): "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" loyihasi doirasida qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha maslahat xizmatlari va jamoalarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish. Mazkur loyiha Islom taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtiriladi.

Keltirilgan fikr va xulosalar faqat mualliflarning qarashlarini aks ettiradi hamda O‘zbekiston Respublikasi hukumati, O‘zbekistondagi BMTTDning va Islom taraqqiyot bankining rasmiy nuqtayi nazari bo‘lib hisoblanmaydi.

© BMTTD, 2025 y. (www.uz.undp.org)

Mundarija

1. Kirish qismi 5
1.1. Umumiy mazmun 5
1.2. Funksional vazifalar tahlilining maqsadi va doirasi 5
2. Uslubiyat 6
2.1. Kameral ish 7
2.2. Ma'lumotlarni yig'ish 7
2.3. Tahlilni o'tkazish 8
2.4. Funksional vazifalar tahlili bo'yicha hisobot tuzish 8
3. Joylardagi tahliliy o'rganishlari natijalari bo'yicha kuzatuvlar 9
3.1. Tuman hokimiyatlarida joylardagi tahliliy o'rganishlari 9
3.2. Mahallalarda joylardagi tahliliy o'rganishlari 11
4. Xulosalar 17
4.1. Tuman hokimiyatlari bo'yicha xulosalar 17
4.2. Mahallalarga oid xulosalar 23
5. Harakatlar rejasi 28

Qisqartmalar

FVT	Funksional vazifalar tahlili
KR	Kadrlar resurslari
AT	Axborot texnologiyalari
ITB	Islom taraqqiyot banki
MFY (MFQ)	Mahalla fuqarolar yig‘ini (qo‘mitasi)
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi

1. Kirish qismi

1.1. Umumiy mazmun

Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha ITB loyihasining B komponenti: "Infratuzilmani boshqarish sohasidagi muhandislik xizmatlari va salohiyatni oshirish" (bundan keyin - Loyiha) O‘zbekistondagi BMTTD hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qo‘shma tashabbusi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, ITBning moliyaviy ko‘magida amalga oshirilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi qishloq aholisi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish va ularning asosiy infratuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar, jumladan sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlashdan iborat.

2024-yilda dastlabki bosqich tadbirlari yakunlangach, loyihaning ikkinchi bosqichi uchta yangi pilot hududga - Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga yo‘naltirilgan holda yo‘lga qo‘yildi. Loyihaning asosiy maqsadi mahalliy hamkorlarning (jamoalar, me’morlar, muhandislar, mahalliy hokimiyat organlari) mahalliy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, mahalliy sharoitlarga mos ekologik toza, energiya tejaydigan va raqamli yechimlarni joriy etishdan iborat. Loyiha maqsadli jamoalar va hamkorlarning ekologik xavfsiz yechimlarni tatbiq etish va amalga oshirish salohiyatini oshirishga, hamda resurslarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish orqali loyihaning ilg‘or tajribasini keng joriy etishga qaratilgan.

Ma’lumki, O‘zbekistonda boshqaruv tizimi markazlashgan bo‘lib, byudjet va ma’muriy lavozimlar bo‘yicha ko‘pchilik muhim qarorlarni markaziy hukumat qabul qiladi. Shunga qaramay, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda mahalliy (sub-milliy) hokimiyat organlari ham muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy darajada fuqarolar yig‘ini (keyingi o‘rinlarda - FY) deb nomlanuvchi jamoat organlari ijtimoiy to‘lovlarni taqsimlash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, qishloqlarda tozalikni ta’minlash va asosiy infratuzilmaning ayrim obyektlarini ta’minlash kabi davlat vazifa funksiyalarini bajarishda muhim rol o‘ynaydi. FYlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ayollar va yoshlar bilan ishlash, tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish kabi aniq masalalar uchun javobgardir.

Mahalla qo‘mitalari tuman darajasidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu muassasalar ko‘rsatadigan xizmatlar sifati mahalliy aholini qoniqarli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qo‘mita faoliyatining samaradorligi mahalliy hayot sifatiga va aholining o‘zini o‘zi boshqarish tizimiga bo‘lgan umumiy munosabatiga ta’sir qiladi. Mahalla qo‘mitalarining yuqori sifat standartlariga mos keladigan yaxshi yo‘lga qo‘yilgan infratuzilmasi, malakali xodimlari, shaffof va samarali institutsional jarayonlari hamda ichki ish jarayonlarining avtomatlashtirilganligi mahalla qo‘mitalarining aholiga munosib xizmat ko‘rsatish layoqati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda hukumat mahalla qo‘mitalarining ehtiyojlarini qondirish va ularning institutsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanmoqda. Shuningdek, ushbu muassasalarning vazifalarini tuman hokimiyatlari doirasida yagona va muvofiqlashtirilgan jarayonga birlashtirishga qaratilgan zarur vositalarni ishlab chiqishga ko‘maklashmoqda.

2024-yilda loyiha doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlaridagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlarining funksional vazifalar tahlili o‘tkazildi, uning natijalariga ko‘ra moliyaviy boshqaruv, shaffoflik va hisobdorlik, shuningdek, samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir qator tizimli tavsiyalar tayyorlandi.

Mahalla qo‘mitalari va tuman hokimliklarining sifatli ijtimoiy xizmatlardan adolatli foydalanishni ta’minlashdagi muhim rolini tan olgan holda, xizmatlar infratuzilmasini yaxshilash va uni xalqaro sifat standartlariga moslashtirish, shuningdek, muassasalarni samarali va natijali ishlashi uchun zarur imkoniyatlar va vositalar bilan ta’minlash hamda funksional vazifalar tahlilni chuqurlashtirish maqsadida, 2024-yilda tanlab olingan 3 ta tuman hokimligi va 15 ta mahallaning funksional vazifalar tahlili o‘tkaziladi.

1.2. Funksional vazifalar tahlilining maqsadi va doirasi

Loyiha doirasida tanlangan uch tuman hokimiyati va 15 ta mahalla fuqarolar yig‘inining vazifa funksiyalarini batafsil tahlil qilish (bundan keyin DAF deb yuritiladi) maqsadi quyidagicha belgilandi:

- mahalla qo‘mitalarining mavjud resurslarini yanada samaraliroq taqsimlash,

- muammolar va imkoniyatlarni aniqlash,
- samaradorlik va unumdorlikni oshirish,
- boshqaruv darajalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yaxshilash.

Ushbu maqsadga quyidagilar orqali erishiladi:

- Hozirda 3 ta tuman hokimiyati va 15 ta mahalla qo‘mitasi bajarayotgan vazifalarni, ularning samaradorligini tahlil qilish orqali ehtiyojlarni yaxshiroq tushunish hamda ushbu tahlilga mazkur vazifalar jamoat ehtiyojlariga qay darajada javob berishini batafsil baholash va loyihani funksional vazifalarni tahlili uchun moslashtirishga yordam berishini ta’minlash.
- 3 ta tuman hokimligi va 15 ta mahalla qo‘mitasidan tashkil topgan tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, bunda tizimni yaxshiroq tushunish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida kuchli va zaif tomonlarga aniq misollar keltirish.
- Mahalla, tuman va hudud darajasidagi vazifalarni takomillashtirish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan har qanday asosli va zarur institutsional, tarkibiy, funksional, moliyaviy yoki boshqa o‘zgarishlarni aniqlash, shu jumladan shoshilinch hamda tizimli muammolarni bartaraf etish uchun qisqa va uzoq muddatli yechimlarni ishlab chiqish.
- 3 ta tuman hokimligi va 15 ta mahalla qo‘mitasi misolida tizim maqsadlariga erishishning muqobil yondashuvlarini amalga oshirish imkoniyatlarini baholash.
- Mamlakatdagi 3 ta tuman hokimligi va tanlab olingan 15 ta mahalla qo‘mitasi uchun funksional vazifalar tahlili bo‘yicha xulosa va tavsiyalar taqdim etish orqali yig‘ma hisobot ishlab chiqish.

Umuman olganda, ushbu funksional vazifalar tahlili quyidagi jadvalda ko‘rsatilganidek, loyihaning pilot hududlarida joylashgan 3 ta tanlangan tuman hokimiyatlarini qamrab oladi.

№	Viloyat	Tuman	Aholi [1]	Hudud [2]
1.	Samarqand viloyati	Okdaryo tumani	177.2 ming	0.39 ming km^2
2.	Surxondaryo viloyati	Sherobod tumani	214.9 ming	2.73 ming km^2
3.	Qashqadaryo viloyati	G’uzor tumani	227 ming	2.66 ming km^2

Funksional vazifalar tahlili doirasida 15 ta mahalla 3 ta pilot hududni va turli tumanlarni ifodalaydi. Bu quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

№	Viloyat	Tuman	Mahalla	Aholi	Hudud
1.	Samarqand	Paxtachi	Saroy	3234	330.7 ga
		Kattaqo'rgon	Polvontepa	4119	86.5 ga
		Oqdaryo	Okdaryo	5625	1015.3 ga
		Bulung‘ur	Olmazor	6484	3580.0 ga
		Urgut	Jartepa	4931	111.9 ga
2.	Surxondaryo	Termiz	Yangiobod	3200	50,2 ga
		Angor	Gilambob	5107	93.0 ga
		Muzrabot	Sopollitepa	4495	137,8 ga
		Sherobod	Guliston	5242	164,0 ga
		Boysun	Temir darvoza	4123	175.0 ga
3.	Qashqadaryo	Kitob	Istikbol	3232	44.3 ga
		Shaxrisabz	Ravot	2583	Ma’lumot yo‘q
		Yakkabog’	Mevazor	5174	400.0 ga
		Qamashi	Kiziltepa	4288	564.2 ga
		G’uzor	Bo’ston	6088	1500.0 ga

2. Uslubiyat

Funksional vazifalar tahlilini o‘tkazish to‘rtta asosiy maqsadga bo‘lingan bo‘lib, ular ketma-ket bajarilgan va ular haqida quyida batafsil ma’lumot beriladi. Xalqaro maslahatchi tadqiqot o‘tkazilgan har bir hududdagi milliy maslahatchilarga joylardagi tahliliy ishlari va ma’lumotlarni to‘plashda rahbarlik qildi.

[1] 2025-yil boshida doimiy aholi soni: https://stat.uz/en/official-statistics/demography
[2] 2025-yilning boshiga oid hudud ma’lumotlari: https://stat.uz/en/official-statistics/demography

Shuningdek, u tahlilning zarur bosqichlarini aniqlash, natijalarni sharhlash, tavsiyalar ishlab chiqish va funksional vazifalar tahlili bo‘yicha yakuniy hisobotni tayyorlashda ko‘maklashdi.

2.1. Kameral ish

Hujjatlar tahlili tuman hokimiyatlari va mahalla fuqarolar yig‘inlarining (qo‘mitalarining) vakolatlar va vazifalar, institutsional tuzilma, ish mexanizmlari kabi asosiy faoliyat elementlarini o‘rganishga qaratilgan edi. Mazkur hujjatlar tahlili FVT doirasida mavzuni chuqurroq anglashga yordam berdi, shuningdek, ma’lumotlarni to‘plash uchun so‘rovnomalarni ishlab chiqish va to‘ldirishda qo‘llanildi. Dasturiy hujjatlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ichki nizomlar hamda tegishli hisobotlar va tadqiqotlar ko‘rib chiqildi, xususan:

1. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ–209-sonli “Jamiyatda mahalla institutining rolini tubdan oshirish va uni aholi muammolarini hal etishda birlamchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ–402-sonli “O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi faoliyatini tashkil etish va mahalla boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-oktabrdagi PF–6324-sonli “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-sonli “2020–2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PF–4575-sonli “2020-yilda 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ–172-sonli “2022–2026-yillarda ‘Obod qishloq’ va ‘Obod mahalla’ dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
9. 2022-yil 27-oktabrdagi Sherobod tumani hokimligi ma’muriy apparati to‘g‘risidagi Nizom.
10. 2018-yil 8-sentabrdagi 1888-Q-sonli Oqdaryo tumani hokimligi ma’muriy apparati to‘g‘risidagi Nizom.
11. 2022-yil 31-dekabrdagi 478-4-56-Q/22-sonli G‘uzor tumani hokimligi ma’muriy apparati to‘g‘risidagi Nizom.
12. 2025-yil 16-yanvardagi 18-7-92-Q/25-sonli Oqdaryo tumani ichki tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror.
13. 2024-yil 12-dekabrdagi 396-4-56-Q/24-sonli G‘uzor tumani ichki tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror.
14. Islom Taraqqiyot Bankining Barqaror qishloq rivojini ta’minlash loyihasi doirasida mahalla qo‘mitalarining funksional vazifalar tahlili bo‘yicha hisobot, 2024-yil.

2.2. Ma’lumotlarni yig‘ish

Joylardagi tahliliy ishlarining asosiy maqsadi tuman hokimiyatlari va mahallalar darajasida ushbu vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida tegishli ma’lumotlarni to‘plash orqali ularni amalga oshirishga bo‘lgan haqiqiy yondashuvlarni kuzatish edi.

Ma’lumotlarni to‘plash maqsadida tuman hokimliklari va mahallalar darajasida funksional vazifalarning amalda bajarilishi, erishilgan natijalar, hisobdorlik va hisobod berish, iyerarxiyalar, moliyalashtirish ta’minoti, kadrlar resurslari va malakalar, qo‘llaniladigan vositalar va boshqa ma’lumotlarni aks ettiruvchi tuzilgan so‘rovnomalar tayyorlandi. Tuman hokimiyatlari uchun so‘rovnomalar har bir hokimlikning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ichki nizomlar asosida bajarilishi kerak bo‘lgan funksiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Mahallalar darajasida esa barcha mahallalar uchun yagona so‘rovnoma qo‘llanilib, unda mahallalar uchun belgilangan standart funksional vazifalar to‘plami aks ettirildi.

Tajribaga asoslanib, xodimlarning vazifalarini funksional tahlil qilish sohasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan va nazorat qilinmaydi. Shu sababli, ma'lumotlarni to'plashning yagona ishonchli usuli manfaatdor tomonlar bilan anketadagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun tuman hokimiyatlari va mahallalar xodimlari bilan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu suhbatlar 2025-yilning avgust-sentyabr oralig'ida o'tkazildi.

Axborotni olish imkoniyati cheklanganligi, ma'lumotlarning umumiy sifati va kodifikatsiyaning past darajasi tufayli ma'lumotlarning mavjudligi tahlil uchun asosiy cheklov deb hisoblanishi kerak.

2.3. Tahlilni o'tkazish

Tahlil quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: kameral izlanishlar doirasida to'plangan ma'lumotlar, joylardagi tahliliy o'rganishlari (yuzma-yuz suhbatlar), shuningdek, imkoniyat darajasida submilliy va mahalliy darajada funksional vazifalarni tashkil etish bo'yicha xalqaro amaliyot.

Tahlil O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi hamda Yevropa Ittifoqining "O'zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash va boshqaruvni kuchaytirish" qo'shma loyihasi doirasida ishlab chiqilgan Funksional vazifalarni ko'rib chiqish bo'yicha qo'llanma (Functional Review Manual) yondashuviga asoslandi. Shuningdek, tahlil 2024-yilda Islom Taraqqiyot Bankining "Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish" loyihasi ko'magida tayyorlangan Mahalla qo'mitalarining funksional vazifalar tahlili bo'yicha hisobot doirasida qo'llanilgan yondashuvning davomi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, tahlil o'zaro bog'liq bo'lgan uchta asosiy tarkibiy bo'limni qamrab olishga qaratildi:

- Belgilangan siyosat maqsadlariga strategik muvofiqlik,
- maqsadlarga erishish uchun tashkiliy salohiyat va
- rejalashtirilgan natijalarga erishishdagi samaradorlik.

Tuman hokimiyatlari va mahallalarning funksional vazifalari bajarilishi bo'yicha to'plangan, qayd etilgan va tavsiflangan ma'lumotlar, shuningdek, milliy maslahatchilarning hisobotlari lavozim vazifalarining funksional vazifalar tahlili doirasida uchta viloyatda tizimli darajadagi tahlil uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Strategik muvofiqlik tahlili tuman hokimiyatlari va mahallalarning strategik va huquqiy muhitidagi asosiy elementlar (maqsadlar, vazifalar, funksiyalar, muddatlar) o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularning o'zaro muvofiqligi va bo'shliqlarini aniqlash imkonini beruvchi usul hisoblanadi.

Tashkiliy salohiyatni tahlil qilish vazifalarni bajarish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan uchta asosiy jihatga qaratilgan:

- Vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan tuzilmalar, ushbu tuzilmalar doirasida tashkiliy bo'linmalar va xodimlar o'rtasida funksional vazifalarni hamda majburiyatlarning aniq taqsimlanishi, hisobdorlik va bo'ysunish tizimi.
- Kadrlar resurslari – ularning mavjudligi, yetarliligi, malakasi va kompetensiyalari nuqtayi nazaridan.
- Ma'muriy salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan tizim va vositalar, jumladan usullar, yo'riqnomalar, qo'llanmalar, tartib-taomillar, shuningdek tashqi va ichki axborot-texnologiya (AT) tizimlari.

2.4. Funksional vazifalar tahlili bo'yicha hisobot tuzish

Asosiy urg'u funksional vasifalar tahlili bo'yicha Hisobotni ishlab chiqishga, milliy ekspertlar hisobotlarida keltirilgan xulosalarni mazkur hisobotga integratsiya qilishga, tizimli darajadagi xulosalarni shakllantirishga va tuzilgan Harakatlar rejasini ishlab chiqish uchun tavsiyalarni belgilashga, shuningdek xulosalarni tekshirishga qaratildi.

Funksional vazifalar tahlil bo'yicha Hisobot ingliz tilida tayyorlandi va izohlar berish uchun O'zbekiston bo'yicha BMT Taraqqiyot Dasturiga (BMTTD O'zbekiston) taqdim etildi..

3. Joylardagi tahliliy o‘rganishlari natijalari bo‘yicha kuzatuvlar

Ushbu bobda tuman hokimiyatlarida ham, mahallalarda ham joylardagi tahliliy o‘rganishlari davomida kuzatilgan ma’lumotlar umumlashtirilib, funksional vazifalar baholash, hamkorlik, salohiyat va ishni boshqarish vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Kuzatuvlar yaxlit tarzda bayon etilgan. Har bir tuman va mahallada o‘tkazilgan joylardagi tahliliy o‘rganishlari bo‘yicha batafsil ma’lumotni milliy ekspertlarning hisobotlaridan topish mumkin.

3.1. Tuman hokimiyatlarida joylardagi tahliliy o‘rganishlari

3.1.1. Funktsional vazifalarni baholash

Bir-birini takrorlaydigan funksiyalar

Hokimning yoshlar siyosati bo‘yicha o‘rinbosari va hokim o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig'ining vakolatlar takrorlanishi kuzatildi. Yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan davlat yordami turlaridan foydalanish masalalarida vazifalarning takrorlanishi ro‘y bermoqda. Shuningdek, mutaxassislar darajasida ham ba’zi o‘zaro kesishuvlarni aniqlash mumkin edi. Masalan, kanselyariya mudiri va intizomga rioya etilishini nazorat qilish bo‘yicha bosh mutaxassisning vazifalari asosan o‘zaro kesishadi, chunki ikkalasi ham o‘z vazifalarini yagona milliy platforma - EDO.uz ("Elektron hujjat aylanish tizimi"ning qisqartmasi) orqali bajaradi.

Ayrim hollarda aholini ish bilan ta’minlash masalalari hokimning birinchi o‘rinbosari, yoshlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vakolatiga kiradi. Shuningdek, ba’zi mansabdor shaxslar - hokimning yoshlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bir vaqtning o‘zida aholini ijtimoiy himoya qilish vazifalarini ham bajaradi. Investitsiyalar va kichik biznesni rivojlantirish masalalari ham hokimning birinchi o‘rinbosari, ham investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari vakolatiga kiradi.

To‘ldiruvchi/Qo‘shimcha funksiyalar

Bir-birini to‘ldiruvchi vazifalar qayd etildi, ya’ni hokimning birinchi o‘rinbosari ayollar va yoshlarni ish bilan ta’minlash hamda ular orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish masalalariga javobgar ekanligi ta’kidlandi. Xuddi shunday majburiyatlarni hokimning yoshlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari ham bajarib kelmoqda.

Shuningdek, ishsizlik, sog‘liqni saqlash, reabilitatsiya va boshqa shu kabi masalalar bilan bog‘liq vazifalar hokimiyatning turli tuzilmalari tomonidan amalga oshirilishi ma’lum qilindi.

Keraksiz vazifalar

Suhbatlar davomida shunday xulosaga kelindiki, ba’zi vazifalar bajarilmayapti, chunki innovatsiyalar va quyi tashkilotlar faoliyatiga zamonaviy yondashuvlar milliy darajada ishlab chiqilib, joriy etilmoqda. Ilmiy-tadqiqot institutlari esa asosan milliy darajada faoliyat yuritib, o‘z filiallarini hududiy miqyosda tashkil etmoqda. Mazkur hududda o‘rmonlar mavjud bo‘lmasa-da, bu yo‘nalishdagi funksional majburiyat majburiy talab sifatida kiritilgan, ammo uni bajarish imkoniyati yo‘q.

Qamrab olinmagan funksiyalar

Mehnat migratsiyasi muammosi iqtisodiy faol aholining o‘sishi va ish o‘rinlari yetishmasligi bilan bog‘liq ijtimoiy masala sifatida hokimning birinchi o‘rinbosari zimmasiga tushadi. Bu vazifani aniq belgilash mehnat migratsiyasining tuman iqtisodiyotiga bo‘lishi mumkin bo‘lgan ta’sirini baholashga yordam berishi mumkin. Hokimning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vakolatiga bolalar huquqlarini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi kiritilmagan. Turizm va hunarmandchilikni rivojlantirish masalalari ham iqtisodiy blok xodimlarining vazifalar doirasiga kirmaydi.

Boshqa tumanda turizm faoliyatini rejalashtirish funksiyasi hokimlikning vazifalari doirasiga kirmaydi.

Natijalar belgilanmagan vazifalar

Barcha tumanlarda funksiyalar ko‘pincha aniq natija yoki samaradorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lmagan jarayon sifatida qaraladi. Misol tariqasida, investitsiyalarni jalb qilish faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalarda xodimlar investorlar bilan muzokaralar olib borganliklarini va yarmarkalarda ishtirok etganliklarini qayd etganlar, ammo ushbu funksiyani bajarish orqali erishilgan aniq natijalarni ayta olmaydilar. Boshqa bir tumanda esa iqtisodiy masalalar, mahalla ishlari, oila va yoshlar bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida aniq erishilgan natijalarni qayd etish nazarda tutilmagan.

3.1.2. Hamkorlik

Tuman hokimiyatlari doirasidagi hamkorlik

Hokimiyat xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik asosan fuqarolarning murojaatlari va arizalarini ko‘rib chiqishda amalga oshirilayotgani ko‘p ta’kidlangan.

Hamkorlikning boshqa yo‘nalishlari tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga erishish bilan bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkichlarni bajarish, ayniqsa hokim birinchi o‘rinbosarining hamda qishloq xo‘jaligi, qurilish va investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosarlarning faoliyatiga sezilarli ta’sir qilmoqda.

Hamkorlik sohasidagi qiyinchiliklar ham ta’kidlab o‘tildi. Investitsiyalar, bandlik va ijtimoiy sohalar o‘rtasida, shuningdek, yoshlar va xotin-qizlar siyosati o‘rtasida muvofiqlashtirish ishlari yetarli darajada olib borilmayotgani qayd etildi.

Davlat boshqaruvining boshqa miqyosidagi hamkorlik

Tuman darajasidagi markaziy davlat tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi tashqi hamkorlikning eng ko‘zga ko‘ringan yo‘nalishi hisoblanadi. Tuman hokimi o‘rinbosarlari ayni paytda tuman darajasidagi markaziy davlat tuzilmalarini ham boshqaradilar. Bundan tashqari, viloyat miqyosidagi hokimiyat organlari bilan, xususan, investitsiyalar jalb etish, aholini ijtimoiy himoyalash, ta’lim va boshqa sohalarda hamkorlik o‘rnatilganligi ham e’tirof etildi.

Hamkorlik sohasidagi muammolarga kelganda, suhbat davomida hokimiyat xodimlari o‘zlari ilgari surgan tashabbuslar milliy darajadagi hujjatlarga qanday kiritilganini kuzatish imkoniyatiga ega emasligi ta’kidlandi.

Xususan, turizm sohasini rivojlantirish borasida mintaqaviy tuzilmalar bilan birgalikdagi faoliyat olib borilmayotganligi tan olindi.

3.1.3. Salohiyat

Ko‘nikmalar va malakalar

Ba’zi hududlarda turli darajadagi xodimlar o‘rtasida bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha sezilarli farq mavjudligi aniqlandi. Mutaxassislar me’yoriy hujjatlarni, ayniqsa qonunlar, Prezident qarorlari va farmonlarini yetarlicha bilmasliklari sababli, o‘z lavozim majburiyatlari bilan davlat siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘liq anglab yetmaydilar. Xodimlarning ayrim vazifalari sifatli natijalar bilan tasdiqlanmagani tufayli ma’lumotlarni rejalashtirish, amalga oshirish va to‘plashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Qog‘oz hujjat aylanishidan elektron platformalarga o‘tilgani natijasida xodimlar ma’lumotlarni yagona formatda to‘plash, tizimlashtirish, qayta ishlash va birlashtirish imkonidan mahrum bo‘ldi. Ixtisoslashgan sohalarda (qurilish, aloqa tarmoqlarini o‘rnatish) tegishli uslubiyot va yo‘riqnomalar mavjud emasligi qayd etildi.

Boshqa bir tumanda esa hokimiyat xodimlarining malakasidagi asosiy bo‘shliqlar raqamlashtirish, loyihalarni boshqarish va muloqot ko‘nikmalari bilan bog‘liq. Investitsiya sohasida biznes loyihalarni tayyorlash va investorlar bilan ishlash bo‘yicha bilimlar yetishmasligi aniqlandi. Xodimlar investitsiya takliflarini ishlab chiqishda, moliyaviy-iqtisodiy asoslarni tuzishda va muzokaralar olib borishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ayollar va yoshlar masalalari bo‘yicha sektor xodimlari loyihalarni boshqarish ko‘nikmalari va ijtimoiy dasturlar monitoringi bilan bog‘liq kompetensiyalarda zaif ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shu sababli, tashabbuslar faqat miqdoriy jihatdan baholanmoqda (masalan, ishtirokchilar soni bo‘yicha), ularning haqiqiy ijtimoiy ta’siri esa baholanmay qolmoqda.

Shuningdek, ichki ish tarmog‘i mavjud emasligi sababli, ayrim hollarda xodimlar o‘rtasida ma’lumot almashish imkoniyati oson bo‘lmasligi aytib o‘tildi.

Ish hajmini baholash

So‘rovlar natijalariga ko‘ra, mutaxassis darajasidagi xodimlari o‘z vaqtlarining asosiy qismini fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish va belgilangan muddatlarda ularga javob tayyorlashga sarflamoqda. Xodimlarning yuqori darajada band bo‘lishining yana bir sababi yuqori tashkilotlardan keladigan so‘rovlardir. Bu so‘rovlarni qisqa muddatda bajarish zarur bo‘lib, bunda tegishli vazirlik va idoralarning tuman tuzilmalaridan ma’lumot to‘plash uchun vaqt talab etiladi.

Hokimning investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga investitsiya loyihalarini tayyorlash, investorlarni qo‘llab-quvvatlash va shu kabi vazifalar yuklangan bo‘lsa-da, ba’zi hollarda bu vazifaning texnik jihatlari ham hokim o‘rinbosarining qo‘lida mujassamlashgan. Xotin-qizlar va yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi xodimlar ish hajmi ortib borayotgani, maqsadli guruhlarga real yordam ko‘rsatish o‘rniga aksariyat vaqt hisobot yig‘ish va rasmiy tadbirlar o‘tkazishga sarflanayotganini aytishmoqda.

Ba’zi hollarda ish yuklamasi mavsumiy xususiyatga ega ekanligi, ayniqsa qishloq xo‘jaligi masalalari bilan bog‘liq paytlarda, alohida qayd etildi.

3.1.4. Ishni boshqarish vositalari

Lavozim yo‘riqnomalari

Hokimlikning mavjud tashkiliy tuzilmalariga kiritilgan yangi lavozimlarning funksional vazifalari tavsifi hokimiyatning birorta ham ichki hujjatida ko‘rsatilmagan. Natijada, xodimlar o‘z funksional vazifalarining tasdiqlangan ro‘yxatiga ega emas (bu holat buxgalter lavozimi, bir nechta yordamchi vazifadagi xodimlar, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassislar, yoshlar masalalari bo‘yicha mutaxassislar va hokimlik matbuot kotibi uchun kuzatilmoqda).

Hokimiyatning ish rejasi

Hokimiyatning muassasa sifatida umumiy ish rejasi hamda muntazam hisobot berish mexanizmi yo‘qligi aniqlandi. Ba’zi tumanlarda hokimiyatning alohida bo‘limlari (xotin-qizlar va oila bo‘limi, yoshlar bilan ishlash bo‘limi va boshqalar) o‘z ish rejalarini ishlab chiqishlari aytildi, ammo ular ham ko‘pincha bir-biri bilan muvofiqlashtirilmagan.

AT-tizimlari

AT tizimlarning integratsiyalashmagani, har bir soha o‘z vazirlik va idoralari tomonidan ishlab chiqilgan alohida AT platformalariga ega ekanligi to‘g‘risida xulosa qilsa bo‘ladi. AT tizimlaridan foydalanish huquqi faqat ma’lumot kiritishga vakolatli xodimlarga berilgan.

Shunday bo‘lsa-da, xodimlarni boshqarish, huquqiy qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni boshqarish kabi bir qator funksiyalar AT vositalari doirasiga kirmaydi..

3.2. Mahallalarda joylardagi tahliliy o‘rganishlari

3.2.1. Funksional vasifalarni baholash

Takrorlanuvchi funksiyalar

Ba’zi mahallalarda hokim yordamchisining vazifasi siyosatni amalga oshirishga mas’ul bo‘lib, doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish kabi majburiyatlarni o‘z ichiga olishi ta’kidlandi. Bu vazifalar yoshlar yetakchisining majburiyatlari bilan birga, xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga ham qaratilgan. Shuningdek, xotin-qizlar faolining vazifasi xotin-qizlar uchun ta’lim

imkoniyatlarini kengaytirish sifatida belgilangan. Bundan tashqari, 2025-yil may oyidan boshlab mahalla ijtimoiy xodimlari ham xuddi shunday vazifani bajarishni boshlashi belgilandi [3].

Iqtidorli yoshlar bilan ishlaydigan yoshlar yetakchisi va iqtidorli qizlar bilan ishlaydigan ayollar faolining vazifalari o‘zaro o‘xshashligini kuzatish mumkin. Biroq, bu vazifalarning yakuniy natijalari turli davlat tashkilotlari (Yoshlar ishlari agentligi va Oila hamda xotin-qizlar davlat qo‘mitasi) tomonidan nazorat qilinishi sababli, mazkur vazifalar har bir xodim uchun alohida tarzda qoldirilgan.

Xotin-qizlar faolining "Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat" tamoyillarini targ‘ib etish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni bajarish borasidagi vazifalari amalga oshirish mexanizmi bo‘yicha mahalla raisi milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni targ‘ib qilish, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash, to‘y va marosimlarning ixcham tarzda o‘tkazilishini ta’minlash kabi vazifalariga o‘xshashdir. Amalda esa, bu ikki vazifani bir-birini to‘ldiruvchi deb qaralishi mumkin. Mazkur vazifani nafaqat rais va uning yordamchisi, balki butun oilaga yoki nizoli tomonlardan biriga ijtimoiy yordam zarur bo‘lgan hollarda ijtimoiy xodim hamda mahallaning boshqa xodimlari ham bajaradi.

Ba’zi hollarda bir qancha vazifalar bir nechta xodim tomonidan parallel ravishda bajariladi - yoshlar bilan ishlash yoshlar yetakchisi, mahalla raisi va ayrim hollarda mahalla hokimi yordamchisining majburiyatlariga kiradi. Ijtimoiy profilaktika vazifalari esa mahalla raisi, ijtimoiy xodim va profilaktika inspektori o‘rtasida taqsimlangan.

Ba’zi mahallalarda yoshlar yetakchisi, mahalla hokimi yordamchisi, xotin-qizlar bo‘yicha faol va ijtimoiy xodim kam ta’minlangan fuqarolar bilan ish olib borayotgani aniqlandi. Zaif oilalar bilan ishlash natijalari ushbu xodimlar tomonidan deyarli bir xil tarzda yetkaziladi - ijtimoiy xodim yordam ko‘rsatilgan muhtoj va zaif shaxslar soni to‘g‘risida xabar beradi, yoshlar yetakchisi muhtoj yoshlarga yordam ko‘rsatish nuqtai nazaridan ushbu maqsadli guruhni aniqlaydi, xotin-qizlar faoli esa muhtoj ayollarni ro‘yxatga oladi.

Bir-birini to‘ldiruvchi funksiyalar

Intervyu davomida mahalladagi hokim yordamchisining uchta bir-biriga bog‘liq vazifalari aniqlandi, xususan:

1) mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kredit va subsidiyalar ajratilishiga ko‘maklashish va aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

2) o‘zini o‘zi band qilgan va tashabbuskor fuqarolar o‘rtasida tadbirkorlikka qiziqishni aniqlash va ularning kichik tadbirkorlik tuzilmalariga o‘tishiga ko‘maklashish;

3) mahallalarda kichik ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi mikroloyihalarning manzilli dasturini ishlab chiqish va loyihalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan to‘siqlarni bartaraf etishga ko‘maklashish.

Ushbu vazifalar o‘zlarining rasmiy tavsifiga ko‘ra farqlanishiga qaramay, ularning natijalari mohiyatan bir xil, chunki ular ayni bir maqsadli guruhga taalluqli bo‘lib, moliyaviy manbalardan foydalanish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan. Bu esa keyinchalik mikroloyihalar dasturida o‘z aksini topadi.

Keraksiz vazifalar

Mahalla raisining milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni targ‘ib qilish, ijobiy ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlab qolish, to‘y-marosimlarni kamtarona va ortiqcha xarajatlarsiz o‘tkazishni ta’minlash kabi vazifalari har chorakda bo‘lib o‘tadigan yig‘ilishlar orqali amalga oshiriladi. Madaniyat arboblari, yozuvchilar, shoirlar va mahalliy aholi vakillari ishtirok etadigan ushbu yig‘ilishlar milliy merosni asrash va belgilangan amalga oshirish mexanizmiga muvofiq kamtarona, tejamkor tantanalarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Biroq, so‘rovda qatnashgan beshta mahalla raisining hech biri ushbu vazifani ko‘zda tutilgan mexanizmga muvofiq amalga oshirish bo‘yicha misollar keltira olmadi. Buning o‘rniga, ular mahalla ahlining oqsoqollar kengashi, hurmatli va faol fuqarolar, din peshvolari ishtirokida to‘y va ma’raka xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha tashabbuslarini misol qilib keltirdilar. Ushbu vazifani amalga oshirish mexanizmini qayta ko‘rib chiqish zarur.

[3] Manba: O‘zbekiston Respublikasi (2025). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-maydagi PF-84-sonli "Kam ta’minlangan oilalarni davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmoni: https://www.lex.uz/docs/7519210

Mahalla raisi, ijtimoiy xodim va xotin-qizlar faoli har oyda tuman hokimligi, tuman bandlik, ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash va boshqa bo‘limlarga taqdim etish uchun bir nechta turli hisobotlar tayyorlaydi. Bu shakllarda ko‘pincha bir xil ma’lumotlar takrorlanadi va o‘xshash ko‘rsatkichlar (masalan, kam ta’minlangan oilalar yoki ishlaydigan fuqarolar soni) mavjud bo‘ladi.

Qamrab olinmagan vazifalar

Mahalla darajasida katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, biroq tizimli ravishda amalga oshirilmayotgan bir qator sohalar aniqlandi. Masalan, ma’lumotlarga asoslangan holda mahallani rivojlantirishni rejalashtirish va boshqarish, mahalla miqyosida iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash va sarmoyalarni jalb etish, shuningdek, aholini rivojlanish rejalari haqida muntazam ravishda xabardor qilish amaliyoti kabi yo‘nalishlar shular jumlasidandir.

Natijalari aniqlanmagan vazifalar

Yoshlar yetakchilarining vazifalari aksariyat hollarda aniq, o‘lchanadigan natijalar bilan asoslanmagani qayd etildi. Xususan, mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jumladan ularni "Besh tashabbus olimpiadasi"ga jalb qilish yoshlar yetakchisining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq, ma’lumotlar to‘plash jarayonida viloyat mahallalaridagi yoshlar yetakchilari mahalla yoshlari uchun bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishni tizimli ravishda tashkil etganliklariga birorta ham aniq misol keltira olmadilar. Shuningdek, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish vazifalari ham hech qanday aniq natijalar bilan tasdiqlanmagani ma’lum bo‘ldi.

Mahalla hududida qonunchilik hujjatlari ijrosi, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi normalarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlash bo‘yicha mahalla raisining vazifalari turli darajadagi mas’uliyat bilan bajarilmoqda. Biroq, barcha mahalla raislari ham ushbu vazifani bajarish natijalarini aniq misollar bilan ko‘rsatib bera olmagan.

Mahalla raisining milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarni targ‘ib qilish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, to‘y va marosimlarni ixcham, isrofgarchiliksiz o‘tkazish borasidagi vazifalari kutilgan natijani bermayapti. Bu vazifa asosan maslahat berish va targ‘ibot qilishdan iborat. Ushbu lavozim faqatgina jamiyatning nufuzli a’zolari guruhi jamoatchilik fikrini shakllantirishni boshlagandagina samarali bo‘lishi mumkin, deb hisoblanmoqda.

Jinoyatchilikning oldini olish va muammoli oilalar bilan ishlash faoliyatining muhimligiga qaramay, hisobotlarda jinoyatchilik darajasining pasayishi yoki ijtimoiy reabilitatsiyaning muvaffaqiyatli misollari keltirilmagan. Bir qator vazifalar bo‘yicha natijalar yo‘qligining asosiy sababi monitoring va hisobot tizimining zaifligidir, chunki u yakuniy natijalarga emas, balki ish jarayonlariga qaratilgandir.

Mas’uliyatlilik

Kuzatishlarga ko‘ra, mahalla raisi mahalla xodimlariga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Biroq, har bir xodimning o‘z yuqori tashkiloti mavjudligi sababli, rais hisobdorlik va bo‘ysunish tizimini aniq belgilay olmaydi. Mahalla raisi mahalla xodimlarining ishini 20 foizgacha bo‘lgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash huquqiga ega, ammo amalda bu hozirda faqat mahalladagi hokim yordamchisi va ijtimoiy xodimga nisbatan qo‘llaniladi. Raisning maoshi mahalla xodimlarining maoshidan 1,5 barobar kam.

3.2.2. Hamkorlik

Mahalla doirasidagi hamkorlik

Mahalla xodimlari ishsiz yoshlar va ayollarni ish bilan ta’minlash, kasb-hunar o‘rgatish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar berish, davlat ijtimoiy yordami olish uchun arizalarni ko‘rib chiqish, oilaviy kelishmovchiliklarni bartaraf etish, davlat ijtimoiy yordamini ko‘rsatish, hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, shuningdek, xonadonlar farovonligini davriy ijtimoiy-iqtisodiy baholash kabi masalalarni birgalikda hal qilishadi. Ayollar masalalari bo‘yicha shtatdagi faol bo‘lmagan mahallalarda boshqa mahalla xodimlari vositachilik vazifasini bajaradi. Mahalla raislaridan biri ta’kidlaganidek, mahalla xodimlari bir-birining vazifalari haqida yetarli ma’lumotga ega emas va elektron platformalarning funksional imkoniyatlarini yaxshi bilishmaydi.

Mahallalarning aksariyatida tadbirlarni rejalashtirish rais tomonidan boshqa xodimlarni jalb qilmagan holda mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Yoshlar yetakchilari va faol ayollar ko‘pincha alohida ish olib borishadi, garchi yosh ayollar va yosh oilalar umumiy maqsadli guruhni tashkil etsa-da.

Davlat boshqaruvining boshqa miqyosidagi hamkorlik

Intervyu davomida ma’lum qilinishicha, shahar va qishloqlarda uy-joy qurish, yo‘l va kommunal infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha davlat dasturi tuman hokimliklari tomonidan tuman davlat organlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilmoqda. Mahalla raisi loyihalarni rejalashtirish va ularning qiymatini hisoblash uchun zarur ma’lumotlarni to‘plashda ko‘maklashadi.

Mahalla va boshqaruv organlari o‘rtasidagi hamkorlik mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari (ipak qurti parvarishi, paxta terimi) paytida, shuningdek, umumxalq hasharlar (shanbaliklar, tozalash kunlari) vaqtida kuzatiladi. Mahalla qo‘mitalariga huquqbuzarlar haqida ma’lumot to‘plash uchun huquqni muhofaza qilish idoralari, hamda muddati o‘tgan kredit va foizlarni undirish bo‘yicha yordam so‘rab tijorat banklari vakillari tez-tez murojaat qilmoqda. Muayyan mahalla hududida ijtimoiy uy-joylar joylashgan (izoh: aholining eng himoyaga muhtoj qatlamlariga vaqtinchalik beriladigan turar-joy). Ijtimoiy xodim vaqtinchalik joylashtirilgan fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida tuman hokimligi xodimlari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Iqtisodiy rivojlanish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash sohasida mahallalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy korxonalar o‘z hududlarida faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, tuman investitsiyalar va tadbirkorlik bo‘limlari bilan muntazam aloqalarni yo‘lga kuyishmagan. Ijtimoiy xodimlar va yoshlar yetakchilari tuman bandlik markazi hamda Mehnat migratsiyasi agentligi bilan deyarli hamkorlik qilishmaydi. Mahalla xodimlari obodonlashtirish rejalarini tuzish, hududlarni tozalash va chiqindi konteynerlarini joylashtirish masalalarida tuman ekologiya va kommunal xo‘jalik bo‘limlari bilan kamdan-kam hollarda hamjihatlikda ish olib boradi.

3.2.3. Salohiyat

Ko‘nikmalar va malakalar

Ba’zi mahalla xodimlari, ayniqsa mahalla raislari va ijtimoiy xodimlar, o‘z lavozim vazifalari haqida aniq tasavvurga ega emaslar. Ko‘pincha ularning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari talab darajasida bo‘lmay, xodimlar elektron platformalarning barcha imkoniyatlaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Mahalla raislariga platformalardan foydalanishda asosan yoshlar yetakchilari yordam beradi. Tez-tez ish joyini o‘zgartiruvchi yoshlar yetakchilari benefitsiarlar bilan ishlashni tashkil etishda va o‘z lavozim vazifalarini bajarishda natijalarga erishishda kam mahoratga yega ekanliklarini ko‘rsatmoqdalar. Erkak ijtimoiy xodimlar gender masalalari bo‘yicha malakalarini mustahkamlashlari kerak.

Ularning faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlardan xabardorlik darajasi past hisoblanadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qonunchilik va me’yoriy islohotlarning tezligini hisobga olgan holda, mahalla xodimlari tez-tez sodir bo‘ladigan va sezilarli o‘zgarishlarni kuzatib borishga qodir emaslar.

Mahalla raislari va mahallalardagi hokimlar yordamchilari tahlil qilish va rejalashtirish ko‘nikmalariga ega emaslar. Mahalla darajasida loyiha takliflarini tayyorlash va investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha bilimlar yetarli emas.

Mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirish, birgalikda rejalashtirish, monitoring o‘tkazish va hisobot berish bo‘yicha umumiy treninglar mavjud emas. Mediatsiya va mojaroli va muammoli shaxslar bilan ishlash bo‘yicha bilim talab etiladi. Shuningdek, inqirozni boshqarish bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantirish zarur.

Ish hajmini baholash

Mahalla xodimlarining ish hajmi ularning funksional vazifalarini bevosita bajarishdan ko‘ra ko‘proq biznes jarayonlarini tashkil etishdagi samarasizligi bilan bog‘liqdir. Ish hajmining 80% rejadan tashqari (no-funksional vazifalar) ishlarga to‘g‘ri keladi. Fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish raislarning vazifasiga kirmasa-da, jismoniy shaxslarning barcha murojaatlari yashash joyidagi mahallaga yuboriladi. Mahalliy byudjetda oilalarga ijtimoiy nafaqalar ajratish uchun mablag‘ yetishmasligi sababli, mahalla xodimlari ko‘pincha nafaqa to‘lashni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga majbur bo‘lmoqdalar. Imtiyozli kreditlar va subsidiyalar bo‘yicha ham xuddi shunday holat kuzatilmoqda.

Umuman olganda, doimiy asosda to‘liq ish kuni ishlaydigan xodimlarning haqiqiy ish samaradorligidan ish hajmi oshib ketishini kuzatish mumkin edi. Eng asosiy og‘irlik ijtimoiy xodimlarga va xotin-qizlar faollari zimmasiga tushib qolmoqda.

3.2.4. Ishni boshqarish vositalari

Lavozim yo‘riqnomalari

Har bir mahalla xodimi hukumat qarorlari yoki tegishli davlat organi yoxud tashkiloti rahbariyati ko‘rsatmalaridan kelib chiqadigan funksional majburiyatlarga ega [4]. Mahalla xodimlarining ko‘plab vazifalari batafsil tavsiflanmagan faoliyat sohalari tarzida belgilangan. Bu esa, ushbu vazifalarning har birini bajarish doirasida amalga oshirilgan aniq harakatlar va erishilgan natijalar haqida ma’lumot berishni qiyinlashtiradi.

Mahallaning ish rejasi

Vazifalarning funksional tahlili jarayonida aniqlanishicha, faqat bir nechta mahallada 2025-yilga mo‘ljallangan "mahalla yettiligi"ning ish rejasi mavjud ekan. Shuni ta’kidlash kerakki, qo‘llab-quvvatlash rejalari nafaqat mahalla xodimlarining funksional vazifalariga oid tadbirlarni, balki davlat organlari va tashkilotlarining tuman bo‘linmalari mansabdor shaxslarining tegishli tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi. Mahalla raislariga ushbu reja doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar haqida ma’lumotlar muntazam ravishda to‘planadimi, degan savolga ular aniq javob bera olmadi.

AT tizimlari

Mahalla raislari ushbu platformadan foydalanmoqda - https://raqamlimahalla.uz ,

Yordamchi - https://online-mahalla.uz/,

Yoshlar yetakchisi - https://yoshlardaftari.uz/ , https://yoshlarbalansi.uz/

Ayollar faollari - https://xotin-qizlar.uz/

Ijtimoiy ish xodimi - https://auth.ihma.uz , https://my.ihma.uz/sign-in

Ko‘pgina tizimlar yakkalangan holda ishlamoqda va bitta foydalanuvchiga bog‘liq..

3.2.5. Reytinglari

Online Mahalla saytida butun O‘zbekiston bo‘ylab mahallalarning reytingini ko‘rish mumkin. Reytinglar viloyat va tuman miqyosida umumlashtirilgan holda taqdim etilgan.



1-diagramma: O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha mahallalar reytingi

[4] Manba: O‘zbekiston Respublikasi (2023). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-sonli "Mahallaning jamiyatdagi rolini tubdan kuchaytirish va uni aholining ehtiyojlarini qondirishning birlamchi bosqichi sifatida faoliyat yuritishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni (1-4-ilovalar). https://lex.uz/docs/6705763

Shunday qilib, FA doirasiga kiruvchi viloyatlar uchun reytinglar quyidagicha ko‘rinishga ega:

1) Samarqand viloyati - 77,2 ball bilan 5-o‘rinni;

2) Qashqadaryo viloyati - 72,7 ball bilan 12-o‘rinni;

3) Surxondaryo viloyati - 65,4 ball bilan 14-o‘rinni egalladi.

Mahallalar reytingidagi ballar aholi bandligi, tadbirkorlik va biznesning rivojlanishi, kambag‘allikning kamayishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida beriladi. Biroq, dastlabki ma’lumotlar va hisobot davrlari ommaga ochiq axborot sifatida e’lon qilinmaydi.

4. Xulosalar

Ushbu bobda tuman hokimliklari va mahallalarning funksional vazifalar tahlili natijalariga ko‘ra chiqarilgan asosiy tizimli xulosalar umumlashtirilgan.

4.1. Tuman hokimiyatlari bo‘yicha xulosalar

C.1. Tuman hokimiyati markaziy milliy darajadagi hokimiyat organlarining davomi sifatida

Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risidagi qonunning 1-moddasiga ko‘ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar bundan mustasno) hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari deb hisoblanadi. Tegishli hududda ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladi. Viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga hamda tegishli xalq deputatlari Kengashiga hisobdordir. Tuman va shahar hokimi esa yuqori turuvchi hokimga hamda tegishli xalq deputatlari kengashiga hisobot beradi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, hokimliklarga milliy darajadagi markaziy hokimiyat organlarining quyi hududiy darajalardagi davomi sifatida qarash kerak, ular ayni paytda xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga, ya’ni bevosita saylangan fuqarolar vakillariga hisobdordir. Yevropa mamlakatlarining siyosatni ishlab chiqish uchun mas’ul bo‘lgan saylangan vakillarga va bo‘ysunuvchi ijro etuvchi organlarga ega bo‘lgan avtonom submilliy/mahalliy munitsipalitetlar bilan qiyosiy yondashuvini O‘zbekistonga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi, chunki mamlakatda markaziy va munitsipal hokimiyat darajalari o‘rtasida vakolatlar chegaralanmagan.

Qonunning 21-moddasiga ko‘ra, tegishli hududda ijro etuvchi hokimiyatni (...) tumanning hokimi (...) amalga oshiradi. (...) tuman hokimi o‘z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi hamda o‘zi rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va harakatlari uchun shaxsan javobgar bo‘ladi. Hokim o‘rinbosarlarining soni davlat Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Qonunning 2-moddasiga ko‘ra, tuman hokimi viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, tuman hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga deputat etib saylanishi mumkin va Kengash deputatlari oldida mas’uldir (4-modda). Bu holat vakolatlarning taqsimlanishi va manfaatlar to‘qnashuvi nuqtai nazaridan qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, mamlakatda tuman hokimliklarining markazlashgan reytingi va har bir tuman hokimiyati uchun umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) belgilanmagan. Ayrim hududlar yoki shaharlar uchun aholi murojaatlari kabi bir nechta KPI hisobga olingan holda alohida reytinglar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular haqida quyidagi havola orqali tanishish mumkin: https://xalqnazorati.uz/oz/problems/rating.

C.2. Tuman hokimiyatlari uchun muassasa sifatida standartlashtirilgan vazifalar to‘plamining yo‘qligi

Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risidagi qonunda hokimiyatning umumiy vazifalari aniq belgilanmagan. Hokimiyat vazifalarini Qonunning 21.1-moddasida keltirilgan hokimning vakolatlari orqali tushunish mumkin, ammo bu vakolatlar bevosita tuman darajasidagi vakillikka tegishli emas.[1]

Qonunning 21-moddasiga binoan, hokim o‘rinbosarlari o‘z vazifalarini hokim tomonidan belgilangan majburiyatlar tartibiga muvofiq bajaradilar. Hokim yo‘qligida yoki u o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda, uning vakolatlarini birinchi o‘rinbosar yoki hokimning topshirig‘iga ko‘ra o‘rinbosarlardan biri amalga oshiradi. Qonun qoidalariga asosan, tuman hokimi ichki huquqiy hujjatlar chiqaradi. Bu hujjatlarda tuman hokimligi tegishli xodimlarining individual vazifalari batafsil keltiriladi, jumladan:

- Sherobod tumani hokimiyati ma’muriy apparati to‘g‘risidagi 2022-yil 27-oktyabrdagi nizom;
- Oqdaryo tumani hokimiyati ma’muriy apparati to‘g‘risidagi 2018-yil 8-sentyabrdagi 1888-Q-sonli nizom;
- G‘uzor tumani hokimiyati ma’muriy apparati to‘g‘risidagi 2022-yil 31-dekabrdagi 478-4-56-Q/22-sonli nizom.

Biroq, hokimiyat vazifalarining yagona nizomi mavjud emasligi sababli, hokimiyatni yaxlit muassasa yoki O‘zbekistonning barcha hokimiyatlarini mamlakatdagi boshqaruvning submilliy darajasi sifatida ko‘rib chiqish qiyin.

Hokimiyat vazifalarini umumlashtirib, ularni hokimiyat xodimlari vazifalarining yig‘indisi deb xulosa chiqarish mumkin. Ammo alohida xodimlar va funksional bo‘linmalarning bu vazifalari ko‘pincha milliy darajadagi tegishli vazirlik va idoralarning siyosatini amalga oshirishning davomi sifatida belgilanadi. Hokimiyatlar va ularning xodimlari oldiga vazifalarni qo‘yishning bunday usuli hokimiyatlar tuman darajasida turli siyosat sohalarining vakillari ekanligini ko‘rsatadi

C.3. Siyosatni amalga oshirish bo‘yicha vazifalarning ustunligi

An’anaviy ravishda hokimlar va hokim o‘rinbosarlarining vazifalarlarining aksariyati siyosatni amalga oshirish sohasiga tegishli. Bu hokimning submilliy darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organi sifatidagi vakolatlariga to‘g‘ri keladi. Hokimga yuklatilgan vazifalar doirasida siyosatning amalga oshirilishini nazorat qilishga oid bir qancha vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

